

---

## TA'ZIM VA EHTIROM SIZGA, AZIZ USTOZLAR!



1 oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ustoz va murabbiylar uchun viloyatimizda bayram tadbiri tashkil etildi.

Ko'tarinki kayfiyatda o'tgan tadbirda viloyatimiz shahar-tumanlaridagi oliy o'quv yurtlariga kirish ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan umumta'lim maktablari direktorlari, faxriy ustozlar, bugungi kunda ta'lim tizimida samarali faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar ham viloyat hokimligining faxriy yorliqlari va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Ushbu tadbirda Qo'shtepa tumanida ta'lim tizimida samarali faoliyat olib borayotgan 4-umumta'lim maktabining o'qituvchisi M.Valiyeva, 49- umumta'lim maktabining o'qituvchisi Sh.Xojisoliyeva, 43-umumta'lim maktabining o'qituvchisi G.Bo'ronova, 46-umumta'lim maktabining o'qituvchisi Sh.Abdullayeva, 1-IDUM o'qituvchisi M.Axmatbekovalar ko'krak nishonlari, viloyat hokimligining faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Bayram munosabati bilan mukofotlangan ustozlarimizni yana bir karra muborakbod etamiz. Jamiyat oldida katta mas'uliyat sohibi bo'lgan barcha ustoz va murabbiylarimizga mustahkam sihat-salomatlik tilab qolamiz.

### **Qo'shtepa tumani hokimligi**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2021-10-02 14:45:10